

**BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA
O'QUVCHILARNING LUG'AT BOYLIGINI
OSHIRISH STRATEGIYALARI**

Solijonova Ruxshona Tolibjon qizi

Qo'qon universiteti talabasi

Valiyeva Nargiza Athamboyevna

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilini o'rganish jarayonida lug'at boyligini rivojlantirishning ahamiyati va metodik asoslari tahlil qilinadi. Lug'at ustida ishlash o'quvchilarning nutqini boyitish, fikrlash qobiliyatini oshirish hamda so'zlarni to'g'ri va o'rinli qo'llash malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinfda lug'at ishlari avval og'zaki, keyinchalik yozma mashqlar orqali amalga oshiriladi, bu esa o'quvchilarga so'zlarning ma'nosini tushunish, ma'nodosh va antonim so'zlarni aniqlash hamda yangi so'zlarni kontekstda qo'llash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, fanlarning atamaları va terminologik so'zlarni tushuntirish o'quvchilarga predmet va tushunchalarni kengroq anglashda yordam beradi. Maqolada lug'atni boyitish strategiyalari, nutqiy vaziyatlardan foydalangan holda yangi so'zlarni o'rgatish, shuningdek o'qituvchining yuksak mahorati va samarali o'quv vositalaridan foydalanish zaruriyati ta'kidlangan. Ona tili va o'qish savodxonligi fani nafaqat lingvistik bilimlarni, balki boshqa fanlarga oid bilimlarni integratsiyalashgan tarzda yetkazadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash, kreativ yondoshuv va amaliy malakasini rivojlantirishga, so'z boyligini va lug'at tarkibini kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada, lug'at boyligi va nutqiy qobiliyatlar o'zaro uyg'unlashib, o'quvchilarning ona tilidagi bilimni mustahkamlash va DTS talablariga javob beradigan darajada shakllanishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ona tili, lug'at boyligi, leksikologiya, so'z boyligini rivojlantirish, nutq qobiliyati, terminologik so'zlar, ma'nodosh va antonim so'zlar, lug'at ishlari, integratsiyalashgan ta'lim, o'qituvchining metodikasi

Mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yagona yondashuv asosida tubdan takomillashtirish, mazkur yo'nalishda oliy ta'lim dasturlarini xalqaro tajriba asosida transformatsiya qilish, shuningdek, ta'lim sohasida uzviylik va uzluksizlikni hamda ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida prezidentimiz

Sh.M.Mirziyoyevning Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-73 sonli farmoni qabul qilingan.¹

Noanaviy ta'limda boshlang'ich sinf ona tili darslaridagi bilimlarni lug'atlarsiz o'quvchi ongiga yetkazib berish qiyin masaladir. O'quvchilarda lug'atlardan foydalanish malakasini rivojlantirish, ona tilini samarali o'zlashtirish va bolaning tafakkurini yuksaltirish uchun muhim omildir. Shu bois boshlang'ich sinf o'qituvchilari turli xil lug'at turlaridan foydalana olishi, o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash malakalarini shakllantirishi lozim. Faqat shundagina o'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar DTS² talablariga mos keladi.

Ona tilini amaliy jihatdan egallash, avvalo, muayyan miqdordagi so'z boyligini bilishni talab qiladi. Shu sababli o'quvchilarga ona tilidagi nutqni dastlabki o'rgatish jarayonida lug'at va imlo mashqlari muhim o'rin tutadi. Lug'at va imlo ishining vazifasi nutq faoliyati uchun zarur bo'lgan lug'at boyligini to'plash, so'zlarning o'zaro bog'lanish qonuniyatlarini, turli leksik ma'nolarni o'zlashtirishdan iborat. O'quvchilarning lug'at boyligi izchil ravishda kengayib borishi esa lug'at ishining turlari va shakllarini rang-barang qilish, ilgari o'rganilgan so'zlarning leksik ma'nosini aniqlashtirish va yanada boyitish imkonini yaratadi.

O'quvchilarning so'z boyligini boyitish o'qituvchiga ona tiliga murojaat qilmasdan so'zlarning ma'nolarini tushuntirish imkonini beradi. Boshlang'ich sinflar uchun o'quvchiga ona tilida oddiy fikrlarni ifodalash va suhbatdoshni dasturda nazarda tutilgan talablar doirasida tushunish imkonini beradigan so'zlar tanlanishi kerak. Birinchi sinfdan boshlab, har bir darsda nutqiy vaziyatlar (dialog, suhbat, ekskursiya, hikoya) natijasida o'quvchilar yangi so'zlarni o'zlashtiradilar va ilgari o'rganilganlarini mustahkamlaydilar.³

Haqiqatan ham, o'quvchilarning so'z boyligini izchil ravishda rivojlantirish boshlang'ich sinflarda ona tilini samarali o'zlashtirishning muhim omilidir. Dars jarayonida nutqiy vaziyatlar orqali yangi so'zlarni o'rgatish va avvalgi bilimlarni mustahkamlab borishi, o'quvchilarning fikrini aniq, erkin ifodalashiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'lum madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishi uchun mazkur yosh sezgir davr hisoblanadi. Bolaning so'z boyligini boyitish va faollashtirish shaxs rivojlanishining umumiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida axloqiy, ma'naviy, intellektual jihatdan rivojlanadi. Bundan tashqari, nutq qobiliyati har qanday inson faoliyatining asosiy negizidir.⁴

¹ 2025 yil 28» aprel № PF-73 Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

² UMUMIY O'RTA TA'LIMNING DAVLAT TA'LIM STANDARTI VA O'QUV DASTURI BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI, O'QISH, MATEMATIKA, TABIIYOT, (1-4-SINF). TOSHKENT-2017. 249 b.

³ Parpiyev Odil Olimovich. ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LUG'AVIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. Namangan davlat instituti. "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali. 2025-yil 1-son. B. 183.

⁴ Ergasheva T.Sh. BuxDPI. BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI TA'LIMIDA O'QUV LUG'ATLARINING MAZMUNI VA AHAMIYATI. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 йил № 6) B. 308.

Darhaqiqat, boshlang'ich sinf davri o'quvchilarda madaniy qadriyatlarni shakllantirish uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayonda so'z boyligini boyitish va faollashtirish bolaning axloqiy, ma'naviy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq qobiliyatining rivojlanishi esa shaxs faoliyatining barcha sohalari uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf dasturida lug'at ishiga katta e'tibor beriladi. Chunonchi, o'quvchilarning har bir so'zini tushungan holda o'qishlari va o'z nutqlarida bu so'zni o'rinli ishlatishlari uchun birinchi sinfdanoq lug'at ustidagi ishlar avval og'zaki, o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab esa, jadal ravishda yozma ifodalab borilishi kerak. O'quvchilar shakl jihatidan turlicha bo'lgan so'zlar bir xil yoki yaqin ma'no bildirishini ba'zi so'zlarning ma'no jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo'lishini, ayniqsa, bog'lanishli matnlarda so'zlarning yangi-yangi ma'no kasb etishini tushunishga o'rgatadi.⁵

Shu bois, boshlang'ich sinflarda lug'at ishlari muhim ahamiyatga ega. So'zlar ustida o'g'zaki va yozma ishlash orqali o'quvchilar so'zlarning ma'nosini to'g'ri tushunishni, ularni nutqda to'g'ri qo'llashni hamda so'zlarning ma'no jihatdan o'xshash va qarama-qarshi bo'lishini tushunib yetadilar. Bu esa ularning nutqini boyitib, fikrini aniq va to'g'ri ifodalashga yordam beradi.

So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunshalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi lug'at tarkibi yoki leksika deyiladi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikologiya lug'at tarkibidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borishi, ba'zi so'zlarning yeskirib, iste'moldan shiqib ketishi, ma'no ko'shish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikologiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi.⁶

E'tiborga molik jihati shundaki, so'z tilning asosiy ma'no birligi bo'lib, lug'at tarkibi va uning nutqda qo'llanilishi, o'rganilishi leksikologiya fanining vazifasidir. Lug'at ustida ishlash metodikasi esa aynan shu lingvistik bilimlarga tayangan holda samarali amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimida lug'at boyligini oshirish bu integratsiyaga chamcharchas bog'liq jarayondir. Bu albatta o'quvchilarning fikrlashiga ham ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa ijodiy (dizayn) fikrlashini ham shakllantiradi.

Boshlang'ich ta'limda berilayotgan asoslar kelgusidagi rivojlanish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ona tili ta'limiga fanlararo integratsiyani joriy etish orqali o'quvchilarda dizayn fikrlash kompetensiyasini

⁵ Ergasheva T.Sh. BuxDPI. BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI TA'LIMIDA O'QUV LUG'ATLARINING MAZMUNI VA AHAMIYATI. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 йил № 6) B. 309.

⁶ Abdullaev S. 4-SINF ONA TILI DARSLARIDA MA'NODOSH VA ZID MA'NOLI SO'ZLAR USTIDA ISHLASH. Termiz – 2013. I.2.

rivojlantirish zamonaviy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat tilni o'rganadi, balki uni boshqa fanlar bilan bog'lab, kengroq kontekstda anglaydi hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi.⁷

O'quvchilarining so'z boyligini rivojlantirish usullari va strategiyalari. An'anaga ko'ra, lug'at o'quvchilar uchun o'rganish uchun alohida mavzu bo'lmagan, ammo gapirish, tinglash, o'qish va yozish darslarida o'qitilgan. Dars davomida, o'quvchilar o'qituvchi va sinfdoshlar tomonidan taqdim etilgan sinf faoliyatiga tegishli bo'lgan o'z so'z birikmalaridan foydalanadilar va yangi so'zlar bilan tanishadilar. Ko'pgina o'quvchilar uchun lug'atni o'rganish o'z ona tilida ma'nolari bo'lgan yangi so'zlar ro'yxatini haqiqiy kontekst amaliyotisiz o'rganishni anglatadi. Aksariyat hollarda ta'lim kontekst, o'quvchilar, tez-tez ularning tilini o'rganish davomida notanish so'z bilan shug'ullanish kerak. Yangi so'z bilan bunday uchrashuv paytida o'quvchilar ikki tilli lug'atda so'zning ma'nosi yuqoriga qarashadi. Ko'pincha ular yangi so'zlar kontekstda ulardan haqiqiy foydalanish haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan satrlarni yozadilar.⁸

Natijada, o'quvchilarning so'z boyligini samarali rivojlantirish uchun yangi so'zlarni kontekstda o'rgatish va amaliy mashqlar orqali ishlatish zarur. Faqat yodlash va tarjima qilish orqali o'rganish so'zlarni nutqda to'g'ri qo'llash imkonini bermaydi.

Lug'atni boyitishda turli lug'atlar juda foydali qo'llanmadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun «Imlo lug'ati» mavjud. O'qituvchi ma'lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug'atlardan o'zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlaridan, turli terminologik lug'atlardan muvaffaqiyatli foydalanadi. So'zlarning ma'nosini tushuntirish o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini o'stiradi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamaları ham tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.⁹

Shu bois, lug'atni boyitishda turli lug'atlardan faol foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilini puxta o'zlashtirishiga katta yordam beradi. «Imlo lug'ati»,

⁷ Athamboyevna, V. N. (2025, December). ONA TILI TA'LIMIDA FANLARARO INTEGRATSIYA ORQALI O'QUVCHILARNI DIZAYN FIKRLASHGA O'RGATISH. In *Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus* (Vol. 1, No. 1, pp. 126-130).

⁸ Embergenova Altinay Jumabekovna. O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGINI RIVOJLANTIRISHDA LUG'ATLARDAN VA QISQA HIKOYALARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. October, 2023. B. 27.

⁹ Aziza Hatamjon qizi Jonibekova, Saodat Ulug'bek qizi Xaitmamatova. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MA'NODOSH VA ZID MA'NOLI SO'ZLAR YORDAMIDA OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI. May, 2022. *Multidisciplinary Scientific Journal*. B. 451.

sinonimlar, antonimlar, frazeologik va terminologik lugʻatlar nafaqat soʻzlarning maʼnosini tushunishga, balki ularni nutqda toʻgʻri va oʻrinli qoʻllashga imkon yaratadi. Shuningdek, fanlarning atamalarini tushuntirish oʻquvchilarga soʻzning mazmunini kengroq anglash, predmetlarni va tushunchalarni toʻgʻri farqlash va tilning turli grammatik kategoriyalarini (ot, sifat, son, feʼl) tezroq oʻzlashtirishga yordam beradi. Shu tarzda, lugʻat boyligi va nutqiy qobiliyatlarni rivojlantirish bir-birini toʻldirib, oʻquvchilarning ona tilidagi bilimini mustahkamlaydi.

Har qanday yangi soʻzni oʻrganish va soʻzni keng qoʻllash uchun oʻrganilayotgan soʻzga doir misollar keltirish, maʼnodosh yoki qarama-qarshi maʼnodagi soʻzlarni topish orqali boshlangʻich sinf oʻquvchilarining soʻz boyligini oshirish mumkin ekan. Va hozirda Ona tili va oʻqish savodxonligi fani oʻquvchilarga tilning lingvistikaga oid nazariy bilim berishni emas boshqa fanlarga doir bilimlarni oʻz ichiga olgan boʻlib yaʼni integratsiyalashgan fan sifatida bolaning mustaqil fikrlashini, kreativ yondoshuvni, taʼlimni turmush bilan bogʻlash malakasini, har sohaga oid boʻlgan yangi bilimlarni va tushunchalarni, terminlarni oʻrganishga va shu orqali fikrlash qobiliyatini kengayib soʻz boyligini, lugʻat tarkibini boyitishga xizmat qiladi. Bu oʻrinda esa oʻqituvchidan yuksak mahorat va samarali oʻqitish uslubi va oʻquv vositalaridan keng foydalanish talab etiladi.¹⁰

Xulosa qilib aytganda, har qanday yangi soʻzni oʻrganish va uni nutqda keng qoʻllash uchun oʻquvchilarga soʻzga doir misollar keltirish, maʼnodosh va qarama-qarshi soʻzlarni aniqlash samarali vosita hisoblanadi. Hozirgi kunda Ona tili va oʻqish savodxonligi fani oʻquvchilarga nafaqat tilning lingvistik asoslarini, balki boshqa fanlarga oid bilimlarni ham integratsiyalashgan tarzda yetkazadi. Bu esa bolalarning mustaqil fikrlashini, kreativ yondoshuvini, turmush bilan bogʻliq masalalarni hal qilish malakasini rivojlantiradi, yangi bilim va tushunchalarni oʻzlashtirishga, terminlarni egallashga, soʻz boyligini va lugʻat tarkibini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu jarayonda oʻqituvchidan yuqori mahorat, samarali uslub va oʻquv vositalaridan toʻliq foydalanish talab etiladi.

1. Boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida lugʻat boyligini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda yangi soʻzlarni kontekst asosida oʻrgatish, maʼnodosh va zid maʼnoli soʻzlar bilan ishlashga alohida eʼtibor qaratilishi lozim.

2. Oʻquvchilarda lugʻatlar bilan mustaqil ishlash malakasini shakllantirish uchun boshlangʻich sinflarda “lugʻat bilan ishlash” elementlarini tizimli ravishda tashkil etish tavsiya etiladi. Xususan, imlo, sinonimlar, antonimlar va terminologik lugʻatlardan foydalanish koʻnikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish zarur.

¹⁰ Tuzikenova Juldizay Amantaevna. BOSHLANGʻICH SINFI OʻQUVCHILARINING SOʻZ BOYLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ISSN 2181-1717 (E) Образование и инновационные исследования (2023 год №5). B. 250.

3. Ona tili va o'qish savodxonligi fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda olib borish orqali o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish samaradorligini oshirish mumkin. Bu jarayonda fanlarga oid atamalarni izchil tushuntirish va ularni nutqiy faoliyatda qo'llashga yo'naltirilgan mashqlarni ko'paytirish maqsadga muvofiq.

4. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lug'at ustida ishlash metodikasi bo'yicha kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan seminar-treninglar va metodik qo'llanmalarni takomillashtirish zarur. Bu esa darslarda innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish va o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 2025 yil 28» aprel № PF-73 Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
2. UMUMIY O'RTA TA'LIMNING DAVLAT TA'LIM STANDARTI VA O'QUV DASTURI BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI, O'QISH, MATEMATIKA, TABIIYOT, (1-4-SINF). TOSHKENT-2017. 249 b.
3. Parpiyev Odil Olimovich. ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LUG'AVIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. Namangan davlat instituti. "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali. 2025-yil 1-son. B. 183.
4. Ergasheva T.Sh. BuxDPI. BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI TA'LIMIDA O'QUV LUG'ATLARINING MAZMUNI VA AHAMIYATI. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 йил № 6) B. 308.
5. Ergasheva T.Sh. BuxDPI. BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI TA'LIMIDA O'QUV LUG'ATLARINING MAZMUNI VA AHAMIYATI. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 йил № 6) B. 309.
6. Abdullaev S. 4-SINF ONA TILI DARSLARIDA MA'NODOSH VA ZID MA'NOLI SO'ZLAR USTIDA ISHLASH. Termiz – 2013. I.2.
7. Athamboyevna, V. N. (2025, December). ONA TILI TA'LIMIDA FANLARARO INTEGRATSIYA ORQALI O'QUVCHILARNI DIZAYN FIKRLASHGA O'RGATISH. In *Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus* (Vol. 1, No. 1, pp. 126-130).
8. Embergenova Altinay Jumabekovna. O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGINI RIVOJLANTIRISHDA LUG'ATLARDAN VA QISQA HIKOYALARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. October, 2023. B. 27.
9. Aziza Hatamjon qizi Jonibekova, Saodat Ulug'bek qizi Xaitmamatova. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MA'NODOSH VA ZID MA'NOLI SO'ZLAR YORDAMIDA OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISHDA INTERFAOL METODLARINING AHAMIYATI. May, 2022. *Multidisciplinary Scientific Journal*. B. 451.
10. Tuzikenova Juldizay Amantaevna. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ISSN 2181-1717 (E) *Образование и инновационные исследования* (2023 год №5). B. 250.